

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

*Toshmirzayeva Muhayyo Maxkambayevna,
Namangan Davlat Universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va mehnat bozorida kichik mutaxassislariga bo'lgan talabning oshib borishi ta'limning har bir bosqichida ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitishni talab qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi iqtisodiyotning keskin o'zgarishlariga moslashgan, har qanday sharoitda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida belgilangan "o'qitish va kasbga tayyorlashda turli xil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va kuchaytirish" doirasida dunyo ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar, taraqqiyotning tezlashib borishi sharoitida kasbiy ta'lim kasb-hunar maktablarida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada yoshlarning kas-hunar maktablariga tayyorlash jarayoni haqida yoritilgan.

Kalit so'lar: kasb-hunar maktabi, zamonaviy kasblar, kompetensiya.

MODERN FORMS OF PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT OF STUDENTS IN VOCATIONAL SCHOOLS

*Tashmirzayeva Muhayyo Makhkambaevna,
Namangan State University 1st stage basic doctoral student*

Abstract: The socio-economic changes taking place in the world and the increasing demand for junior specialists in the labor market require vocational training of students at every stage of education. Almost all developed countries have an education system that is adapted to the sharp changes in the economy and prepares competitive specialists in any conditions. In the framework of «expanding and strengthening various educational opportunities in teaching and training for the profession» as defined in the international concept of education of the United Nations until 2030, in the context of the innovations entering the world education system and the acceleration of development, vocational education is a profession. - the issue of developing professional training of students in vocational schools remains urgent. This article describes the process of preparing young people for vocational schools.

Key words: vocational school, modern professions, competence.

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧАСТВАХ

*Таширзаева Мухайё Махкамбаевна,
Докторант 1 курса Наманганского государственного университета*

Аннотация: Социально-экономические изменения, происходящие в мире, и растущий спрос на младших специалистов на рынке труда требуют профессиональной подготовки студентов на каждом этапе образования. Практически во всех развитых странах существует система образования, адаптированная к резким изменениям в экономике и готовящая

конкурентоспособных специалистов в любых условиях. В рамках «расширения и укрепления различных образовательных возможностей в области преподавания и подготовки по профессии», как это определено в международной концепции образования ООН до 2030 года, в контексте инноваций, входящих в мировую систему образования, и ускорения развития, профессиональное образование - это профессия - остается актуальным вопросом развития профессиональной подготовки учащихся в профессиональных училищах. В данной статье описан процесс подготовки молодежи к профессиональным училищам.

Ключевые слова: профессиональное училище, современные профессии, компетентность.

Keyingi davr XX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bunda kasb ta'limi muammolari o'sha davr mafkuralarida o'z aksini topgan: kasb-hunar maktab o'quvchisining ta'limdan asosiy maqsadi kelajakdagi mehnatga tayyorgarlik ko'rish edi. Bu davr mamlakatimizda barcha sohalarning jadal rivojlanishi bilan ajralib turdi, bu esa malakali mutaxassislar yetishmasligi muammosiga olib keldi. Shunga muvofiq, ta'lim oldiga yangi tashkil etilgan ish o'rinlarini kadrlar bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Shuning uchun ham barcha kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchilarga davlat uchun zarur bo'lgan kasbni o'rgatishgacha olib borildi, o'sha davrda shaxsiy xususiyatlarga muvofiq kasb tanlash nazariyalari mavjud emas edi.

Yuqorida muhokama qilingan omillarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu davr faoliyatning turli sohalari vakillari uchun kasbiy yo'naltirishning tubdan farqli yondashuvlarini amalga oshiradigan ikkita asosiy yo'nalish bilan tavsiflanadi: ta'lim va mehnat; bu vaqtda birinchi marta maqsadni belgilash va kasbga yo'naltirish ishining mazmunini anglashda qarama-qarshilik paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, E.Ginzberg, D.Syuper, S.Fukuyama asarlarida taqdim etilgan ko'p sonli tamoyilli yangi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi hisobiga xorijda kasbga yo'naltirishning nazariy asosini faol boyitish kuzatiladi. Ular kasbiy yo'naltirishni shaxsning kasbiy rivojlanishiga mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yordam berishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaraydilar.

Masalan, D.Syuper tomonidan shakllantirilgan kasbiy rivojlanish konsepsiyasi kasbga yo'naltirish bo'yicha o'ziga xos birinchi qo'llanma bo'ldi. Ushbu nazariyaga muvofiq, kasbiy yo'nalish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda quyidagilarni tanlash kerak:

- tashkiliy faoliyatli (faoliyatning tashkiliy qismi): kasbga yo'naltirish umumiy va professional ta'lim doirasida amalga oshiriladi;
- kasbga yo'naltirishni tashkil etish zarurati, ularning huquqiy holati;
- xodimlarning malakasi: kasbga yo'naltirish faoliyati ta'lim muassasalari xodimlari yoki maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunar maktabi o'quvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosini to'la, ijobiy hal qilishda ham tayanch tushunchalar va ularning mazmunidan xabardor bo'lish talab etiladi. xususan, "kompetensiya", "kompetentlik", "kompetensiyaviy yondashuv", "kasbiy madaniyat" hamda "rivojlanish" tushunchalarning pedagogik tavsifi muammoni hal qilishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, tajriba-sinov ishlarini muvaffaqiyatli olish borish, eng muhimi, tadqiqotni tashkil etishda samaradorlikka erishish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli tadqiqotni olib borishda masalaning bu jihatiga alohida e'tibor qaratildi.

Dastlab "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari nazariy jihatdan tahlil qilindi.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari pedagogika sohasida ilk bor

1957-yilda qo‘llanilgan [1]. dastlab har ikki tushunchaga nisbatan “ular bir xil ma’noni anglatadi”, deya yondashilgan bo‘lsa, keyinchalik farqli jihatlari ko‘rsatilgan. O‘tgan asrning 60-70- yillarida AQSH ta’lim tizimida yuzaga kelgan pedagogik faoliyat samaradorligining pasayishi kuzatildi, soha keng ko‘lamda tanqid qilindi. Natijada muammoni chuqur, har tomonlama o‘rganish, sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qilish ehtiyoji yuzaga keldi. Shu maqsadda tashkil etilgan psixologik tadqiqotlarning natijasi kompetensiya va kompetentlik tushunchalari garchi bir qarashda bir ma’noni anglatadigandek bo‘lsa-da, biroq, farqli ravishda turli holatlarni ifodalashi ma’lum bo‘ldi.

“Kompetensiya” (lot. “competere” – muvofiq bo‘lish, mos kelish) tushunchasi bir guruh tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha talqin qilindi: bitiruvchi ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarda aks etadigan shaxsning o‘zaro aloqador sifatleri majmui (A.V.Xutorskoy) [2]; muayyan predmet bo‘yicha axborotli o‘zlashtirilgan chuqur bilimlar; qandaydir vakolat, huquqlar doirasi (G.S.Vyalikova) [50]; muayyan fan sohasini bilish, uning kategoriyalari yordamida fikrlashni ifodalovchi, ta’lim jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui (T.V.Pankova) [3]; mutaxassisning belgilangan turdagi kasbiy vazifalarni hal qiluvchi shaxsiy qobiliyati (A.Xavilo) [4]; qandaydir tashkilot yoki shaxsning vakolatlari doirasi; shaxs ega bo‘lgan bilim, tajriba yordamida hal etiladigan masalalar doirasi (rus tilidagi xorijiy atamalar katta lug‘ati) [5]; muayyan sohadagi kasbiy faoliyatning unumli bajarilishini ta’minlovchi harakatning umumlashgan usullari (V.I.Zagvyazinskiy) [6]; kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun har biri teng qiymatli ahamiyatli bilim, ko‘nikma, qadriyat, yo‘nalish va munosabatlar integratsiyasi; biror kundalik yoki mutlaqo yangi faoliyatni bilim, ko‘nikma, qadriyat, yo‘nalish va munosabatlar birligi asosida amalga oshirish, bilim, ko‘nikma, munosabat va tajribani tanish va notanish kasbiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati (Y.R.Najmiddinova) [7]; faollikning ijtimoiy va individual shakllarini o‘zlashtirganlik darajasi (Y.N.Yemelyanov) [8].

Tadqiqot muammosining xarakteridan kelib chiqqan holda, “kompetensiya” tushunchasini shunday ta’riflash mumkin: kollejlarda bitiruvchisining tegishli ta’lim dasturlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka, ish tajribasini zarur darajada o‘zlashtirishi asosida kasbiy faoliyat vazifalarini samarali bajara olish qobiliyati; ushbu qobiliyat negizida bitiruvchi tomonidan erishishi kutilayotgan, shuningdek, tegishli mezonlarga muvofiq baholanadigan yutuqlari.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan kompetensiyaning shaxsga xos sifat hamda qobiliyat; chuqur bilim; mutaxassisning kasbiy faoliyatda ma’lum vazifalarni bajarishga bo‘lgan vakolati; bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi; kasbiy faoliyatning sifatli, samarali tashkil etilishini ta’minlovchi harakat usullarining majmui ekanligi ma’lum bo‘ladi.

M.A.Innazarovning ko‘rsatishicha, “kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi” [9].

Tadqiqotlarda kompetensiyalarning turlari ham ko‘rsatib o‘tilgan:

- shaxs sifatida o‘z-o‘ziga taalluqli bo‘lgan (sog‘liqni saqlash, qadriyat yo‘nalishlari, integratsiya, fuqarolik, o‘z-o‘zini takomillashtirish); ijtimoiy o‘zaro munosabatga taalluqli mansub, faoliyatga taalluqli kompetensiyalar (bilish, o‘yinli, kasbiy) (I.A.Zimnyaya) [10];

- qadriyatli ma’naviy kompetensiyalar (shaxsning atrof-olamni ko‘rish va tushunish, unda yo‘nalish o‘la bilish, o‘z o‘rni va vazifasini anglash, faoliyati, xatti-harakatlarining maqsad va ma’nosini tushunish, mustaqil qaror qabul qilish uchun maqsadli va ongli xatti-

harakatlarni tanlash, qaror qabul qilish qobiliyatlari); umummadaniy kompetensiyalar (milliy va umuminsoniy madaniyat sohasida faoliyat yuritishni bilish va tajriba; inson va insoniyat, alohida xalqlar hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari; oilaviy, jamoviy, ijtimoiy hodisalarning madaniy asoslari va an'analar); o'quv-bilish kompetensiyalari (shaxsning mantiqiy, metodologik, umumiy o'quv faoliyati elementlarini o'z ichiga olgan mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar majmui); axborot kompetensiyasi (o'quv fanlari va ta'lim sohasidagi, shuningdek, atrof-olamdagi axborotga munosabat bo'yicha faoliyat ko'nikmalari); kommunikativ kompetensiyalar (tillarni bilish, tevarakat-atrof, uzoqdagi voqealar va odamlar bilan o'zaro munosabatlar usullari; guruhda, jamoada ishlay bilish ko'nikmalari, turli ijtimoiy rollarni egallash); ijtimoiy-mehnat kompetensiyalari (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil, iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi, oila a'zosi rollarini bajarish); shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish kompetensiyalari (jismoniy, ma'naviy va aqliy o'zini o'zi rivojlantirish usullarini o'zlashtirish, hissiy o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi) (A.D.Xutorskoy) [11].

Garchi kompetensiyalar bir necha guruhlariga ajratilsa-da, ularning barchasi ikki muhim mezon (talab)ga javob beradi. Ya'ni: umumiy (kompetensiyalardan turli soha va faoliyatlar jarayonida foydalanish imkonini ta'minlash) hamda xususiy (muayyan faoliyatni amalga oshirishga jalb etilganlikni aks ettiruvchi qobiliyat).

Nazariy tahlil natijasida aniqlandiki, asosiy kompetensiyalar tarkibi mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan, ular bir-biridan keskin farq ham qiladi. Ayrim tadqiqotchilar asosiy kompetensiyalarni "umumiy ko'nikmalar" yoki "tayanch malakalar" kontekstida o'rganadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunar maktabi o'quvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotni olib borish jarayonida bo'lajak mutaxassis sifatida bitiruvchilarning tayanch va asosiy kompetensiyalarni o'zlashtira olishi zarur, degan fikrga kelindi. Bunda tayanch va asosiy kompetensiyalar majmui shakllantirildi. Ular quyidagilardir:

- 1) tayanch kompetensiyalar;
- 2) asosiy kompetensiyalar.

Tadqiqot davrida kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunar maktabi o'quvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosi quyidagi tayanch kompetensiyalar vositasida tahlil qilindi: ijtimoiy-madaniy (fuqarolik holati, mas'uliyatlilik, ijtimoiy-qadriyatli yo'nalish, o'zaro munosabatlar tizimida boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatlar, jamoada ishlash qobiliyati va boshqalar), shaxsiy (aks ettirish qobiliyati, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini shakllantirish, o'z-o'zini anglash va hokazo), axborot (turli manbalardan axborotni izlash va tahlil qilish qobiliyati, bilimlarni kengaytirish, yangi g'oyalarni izlash va boshqalar), faoliyatli (ijtimoiy va kasbiy muammolarni va turli murakkablikdagi kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyati, boshqalarga samarali yechimlarni yetkaza olish qobiliyati va boshqalar).

Ularning har biri motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli, hissiy xarakterga ega. Shundan kelib chiqqan holda kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunar maktabi o'quvchilarining kasbiy madaniyatining rivojlanganlik darajasini baholash mezon sifatida motivatsion-qadriyatli (kasbiy faoliyatni tashkil etish qiziqish, ishtiyoq, kasbni qadriyat sifatida qabul qilish); kognitiv (kasbiy faoliyat asoslarini, kasbiy madaniyat sifatlarini o'zlashtira olish); faoliyatli (kasbiy faoliyatda o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, maqsad qo'yish, loyihalay olish, kasbiy madaniyat me'yorlariga rioya qilish); hissiy (kasbiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini shakllantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini anglash) xarakterdagi kompetensiyalarni e'tirof qilish mumkin.

XX asrning 60-yillarida kasbiy yo'nalishni rivojlantirishning navbatdagi katta

bosqichi boshlanadi (u XX asrning 60-80-yillarini o'z ichiga oladi) va kasb-hunar ta'limini korxonada o'qitish bilan uyg'unlashtirish uchun tavsifli konsepsiyaga aylanadi.

Kasbga yo'naltirish sohasidagi sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, bu davrni o'tish davri sifatida tavsiflash mumkin, chunki u an'anaviy va sanoat jamiyatiga xos xususiyatlarga ega edi. Bu vaqtda ta'lim va mehnat sohasi vakillari o'rtasida kasbiy rivojlanishga bo'lgan yondashuvlar o'rtasidagi qarama-qarshilik davom etib, o'quvchilarni mamlakatning iqtisodiy hayotidan ajratib turdi. Bu omillarning uyg'unligi o'quvchi shaxsining ikkinchi darajaga o'tishga olib keldi.

XX asrning 70- yillaridan boshlab kasbga yo'naltirish sohasida yangi xususiyat paydo bo'ldi, bu kasbiy yo'l-yo'riqning asosiy vazifasini insonning xususiyatlari, uning xarakteri va zarurati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish jarayoni sifatida turli kasblardagi mutaxassislarni tavsiflashdan iborat. Bu tushuntirish, bizning fikrimizcha, kasbga yo'naltirish va kasbiy rivojlanish hodisalarini tushunishda jiddiy qadamdir: endi ularga nafaqat jamiyatning ma'lum bir kasb egalariga bo'lgan ehtiyojlari, balki shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlar ham ta'sir qiladi.

Ushbu vazifaga asoslanib, A.D.Sazonov kasbga yo'naltirish ishining ayrim tamoyillarini belgilab berdi: kasbga yo'naltirishning hayot bilan bog'liqligi, kasb-hunar maktab, oila, ishlab chiqarishning o'zaro ta'siri, kasbga yo'naltirishning tizimliliigi va boshqalar [12]. Aynan shu asarlarda shaxsning kasbiy rivojlanishni omillar kombinatsiyasi ta'sirida shakllangan jarayon sifatida ongli ravishda ko'rib chiqishga bo'lgan birinchi urinishlar namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda kasbiy yo'nalish tashkiliy-boshqaruv va tashkiliy-pedagogik tizim sifatida qarala boshlaydi. Ushbu yondashuv I.N.Nazimov, A.d.Sazonova, V.F.Saxarova, A.A.Vaysburg, N.N.Chistyakov, S.N.Chistyakovalarning "O'quvchilarining kasbiy yo'nalishini boshqarishning pedagogik asoslari" [13], S.N.Chistyakova va N.N.Zaxarovning "O'quvchilarining kasbiy yo'nalishi: tashkil etish va boshqarish" [14] kabi ishlarida o'z aksini topgan bo'lib, o'quvchilarni yoshlik davridan kasbga tayyorlash zarurat ekanligini ta'kidlaydi.

Kasbga yo'naltirish g'oyalari rivojlanishining ushbu davrini baholar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, o'sha paytda kasbiy rivojlanish butun hayot davomida shakllangan yagona, yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqilmagan, u o'quvchilar o'qishni tugatgandan so'ng tugaydi, deb hisoblangan.

Kasbga yo'naltirish XX asrning 80- yillarida o'zining haqiqiy gullagan davriga yetdi: yoshlar uchun kasbga yo'naltirish markazlari yaratildi, professional maslahatchilar tayyorlandi, bunday markazlarning kelajakdagi rivojlanishi uchun platforma sifatida kasbga yo'naltirish bo'yicha haqiqiy davlat xizmati tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Кривых С.В. Кластерный подход в профессиональном образовании: монография. / С. В. Кривых, А. В. Кирпичникова. - СПб.: ИНОВ, 2015. - 140 с.

Кривых С.В., Игишев, В.Г. Формы социального партнерства вузов и работодателей / С.В. Кривых, В.Г. Игишев // Социальное партнерство как фактор развития сетевого взаимодействия учреждений образования в условиях подготовки компетентных рабочих кадров и специалистов: материалы научно -практической конференции. - Тюмен: ТюмГНГУ, 2010. - С. 23-29.

Кричевский В.Ю. Финансовая самостоятельность в сфере образования: первые шаги: пособие для руководителей образовательных учреждений / [В.Ю.Кричевский и др.]; под ред. В.Ю. Кричевского. - Санкт-Петербург: Просвещение, Фил., 2005. - 174 с.

Кубрушко П.Ф. Содержание профессионально-педагогического образования / П.Ф.Кубрушко. – М.: Высш. шк., 2001. – 236 с.;

Куган Б.А. Межведомственный подход в управлении профориентационной работой в Курганской области / Б.А. Куган, Н.А. Криволапова // Профессиональная ориентация: задачи, содержание, технологии: Материалы III Всеросс. конференции (21-22 октября 2015 г., Москва). - 2015. - Вып. 4. - С. 6579.

Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания / Т.В. Кудрявцев. - М.: Изд-во МЭИ, 1985. - 108 с.